



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2021- YILNING  
YANVAR-NOYABR OYLARIDA


## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi**

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**



65,2 %

115,4 %

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari**

58,6 %

117,4 %

6 699,8  
mlrd. so'm

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari**

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 699,8** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 417,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,4 %** ni tashkil etdi.


## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan, tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni almashtirishga yordamlashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **234,9** mlrd. so'mga o'sdi va **741,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **123,9** mlrd. so'mga o'sgan va **553,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning oktabr oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **2,6** mlrd. so'mga pasaydi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning oktabr oyiga nisbatan 2020- yil noyabr oyida xizmatlar hajmi **26,0** mlrd. so'mga kamaygan.

## Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-noyabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>6 699,8</b>	<b>117,4</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	267,2	116,4
Moliyaviy xizmatlar	1 463,1	128,0
Transport xizmatlari	1 177,4	117,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	986,4	113,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	250,1	113,3
Savdo xizmatlari	2 107,8	108,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	134,8	119,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	237,4	118,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	76,7	122,9
Ijara xizmatlari	114,7	117,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	110,5	117,5
Shaxsiy xizmatlar	167,7	115,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	338,6	142,6
Boshqa xizmatlar	253,8	116,6

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,5** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**21,8** %), transport (**17,6** %), shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**5,1** %) bo'yicha qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida ulushi **1,1 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,3 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,1 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-noyabr oylarida yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlarda (**42,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,0 %**), sog'liqni saqlash (**22,9 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**19,0 %**), ta'lim sohasida (**18,4 %**), ijara hamda kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarida (**17,5 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlarda (**8,1 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **126,8** %. Boshqa xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **12,7** %.



Info

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,5 %** ni tashkil etib, bu **2 107,8** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 760,6** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,3 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari



2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismidan ko'prog'ini, aniqrog'i, **83,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,4 %**) tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida eng kam hajmni ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **8,0 %** ga yetdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi **83,0 %** ga yetdi.



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 463,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 122,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,8** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar- noyabr oylarida ularning ulushi **21,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **340,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **28,0** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **126,8** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

## 2021- yil yanvar-noyabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,3** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0** % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,7** % ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,9** % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.


Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0** % ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,1** %.

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021-yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **1 177,4** mlrd. soʻmga teng boʻlib, ularning oʻsishi 2020- yilning shu davriga nisbatan **17,2 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,6 %** ni tashkil etdi.

### Turlari boʻyicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **83,8 %** dan yuqorini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu transport turi tomonidan koʻrsatilgan xizmatlarning ulushi **86,3%** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

## Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-noyabr

2021- y. yanvar-noyabr

33,5

34,3

66,5

65,7

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **65,7 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **66,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



## Dastlabki ma'lumotlar




2021- yil yanvar-noyabr

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **94,9** % ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-noyabr

2021- y. yanvar-noyabr



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,2** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **237,4** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,5 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,4 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.  
Yanvar-noyabr

2021- y.  
Yanvar-noyabr



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **70,1** mlrd. so'mga ko'paydi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2020- y.  
yanvar-  
noyabr

Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2021- y.  
yanvar-  
noyabr



2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,1** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,8** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

6 561,9  
ming so'm

1 296,4 ming  
so'mga

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 561,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,4 %** ni tashkil etdi.

### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **5 265,5** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,7 %** da qayd etilgan.

115,4 %

O'sish sur'ati

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

14 828  
birlik



1 939  
birlikka  
o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

115,0 %



65,2 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **65,2 %**, sanoat **16,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,4 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,4 %** ga to'g'ri keldi.

### 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **64,5 %** ni sanoat **16,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,4 %** ni, qurilish **7,8 %** ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2021- yil yanvar-noyabr**

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**53,1 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **9,4 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,2 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,7 %** ga teng bo'ldi.

**Savdo – 53,1**

**Boshqa turdagi xizmatlar – 28,8**

**Yashash va ovqatlanish – 9,4**

**Tashish va saqlash – 4,8**

**Sog'liqni saqlash – 2,2**

**Axborot va aloqa – 1,7**




## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



51,4 %

2021- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **58,6 %** ni tashkil etdi.

## 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **85,0 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 79-223-63-31

1- dekabr holatiga

2020 - y.

83,6 %

2021 - y.

85,0 %